

Uzum ko'chatini yetishtirishning elektrotexnologiyasini ishlab chiqish mavzusida seminar tashkil qilindi

Bugungi kunda Mamlakatimizda mevali daraxt va uzumzorlarni ko'paytirish bo'yicha sezilarni ishlar olib borilmoqda. Bunga yorqin misol sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7 iyul kuni uzum yetishtirish, uni sanoat usulida qayta ishlashni rivojlantirish hamda hududlarda enoturizmni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida yurtimizda fermer xojaliklari tomonidan 90 ming gektar maydonda uzum yetishtirilmoqda. Songi to'rt yilda 52 ming gektar yangi tokzorlar tashkil etilib, sohaga 210 milliard som subsidiyalar ajratildi. Shu davur mobaynida meva-sabzavodlar eksportida uzumning ulushi 2 baravarga oshganligi va shu bilan birga ayrim hududlarda yirik tokzorlar maydoni 7 ming gektarga kamayganligi takidlandi. Misol uchun, Qashqadaryoda 2,5 ming gektar, Namanganda 2,4 ming, Surxondaryoda 1,2 ming, Andijonda 645 gektarga kamaygan va Jizzax, Qoraqalpog'iston va Farg'onada tokzorlar maydoni ko'payganligi takidlab otildi. Shunday tajriba asosida Qoraqolrog'iston va viloyatlardagi 44 ta tumanda yangi eksportbop uzum plantatsiyalari tashkil etish vazifasi qo'yildi.



Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5200-sonli 2021 yil 28 iyuldagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risida qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4549-sonli 11.12.2019 yildagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni olish mumkin. Farmonda meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', uzumzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtiruvchilarni meva-sabzavot klasterlariga birlashtirish ishlari olib borilmoqda. Uzum chilik klasterlarini tashkil qilishda yaxshi rivojlangan ko'chatlar sog'lom, tana, navda va ildizlarda hechqanday zararlanishlarsiz yetishtirilgan va turli kasalliklardan holi uzum ko'chatlariga talab oshadi.



Shu munosabat bilan Institutning "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida 10 sentyabr kuni kafedra tayanch doktoranti N.Markaevning "Uzum ko'chatini yetishtirishning elektrotexnologiyasini ishlab chiqish" mavzusida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talabalar uchun ilmiy seminar tashkil qilindi. Seminarda uzum ko'chatlarining yetishtirish texnologiyalari va uzum qalamchalarida ildiz hosil bo'lishini tezlatishga qaratilgan bir qator ilmiy asosga ega usullar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Ishtirokchilar tomonidan tatqiqotchiga savollar berildi va seminar ilmiy muhakamalarga boy holda o'tdi. Seminarda uzum ko'chatlarining tutuvchanligini oshirish borasida bir qator biologik va agrotexnik tadbirlardan foydalanilayotga bo'lsa ham, bugungi kunda fermer xo'jaliklari ko'chat zorlaridaga ko'chatlarning tutuvchanligi va ko'chat yetishtirish rentabiligi past bo'lib, uzum plantatsiyalarini barpo qilinishida to'siqlarga uchrashi takidlandi. Hozirgi fanning holati ushbu omillarni turli xil stimulyatorlar, shu jumladan elektromagnit maydon energiyasining turli ko'rinishlari (elektr maydoni, elektr toki, magnet maydoni, elektr razriyadi, elektr magnit to'lqinlar, impul'sli elektromagnit maydoni) ning elektrofizik ta'sirlari yordamida boshqarish va o'simliklar hayotiga faol aralashish orqali uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkoniyatlari mavjudligi etirof etildi.

